




**XORAZM VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI**



**XORAZM VILOYATINING
SANOAT
ISHLAB CHIQRISHI**

*2023- YIL YANVAR-APREL
(DASTLABKI MA'LUMOT)*



Xorazm viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

(2023- yil yanvar-aprel oylarida)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023- yilning yanvar-aprel oylarida viloyat korxonalari tomonidan 6 012,7 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 103,7 %ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelgan va uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 95,5 %ni tashkil etdi.



B

Tog'-kon sanoati va
ochiq konlarni ishlash




C

Ishlab chiqaradigan
sanoat



D



Elektr, gaz, bug' bilan
ta'minlash va havoni
konditsiyalash



E

Suv bilan ta'minlash;
kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig'ish va
utilizatsiya qilish


Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* %da



*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati – 378,6 %ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 1,2 %ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 41,3 %ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimining 26,7 %ga o'sishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023- yilning yanvar-aprel oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,5 mlrd so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,025 %ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda




Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd so'm

yanvar-aprel

FHI,% da



2023- yilning yanvar-aprel oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5 036,5 mlrd so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 95,5 %ini tashkil etdi.

2022- yil yanvar-aprel


96,5 %

2023- yil yanvar-aprel

95,5 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,03 %ni (2022- yilning yanvar-aprel oylarida – 0,11 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 34,4 %ni (2022- yilning yanvar-aprel oylarida – 42,3 %), o'rta-quyi texnologiyali – 5,0 % (2022- yilning yanvar-aprel oylarida – 2,9 %) va quyi texnologiyalisi – 56,1 % (2022- yilning yanvar-aprel oylarida – 51,3%)ni tashkil etdi.

■ 2023- yil ■ 2022- yil




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 34,8 % (2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 86,4 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,5 % (2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 126,8 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 25,6 % (2022-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 106,6 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 30,6 % (2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 103,2 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,7 % (2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 184,3 %)ni, yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), poxol va to'qish uchun materiallardan buyumlar, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 1,7 % (2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 140,6 %)ni tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da *


Paxta tolasi




Paxta chigiti




Paxtadan yigirilgan ip




Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz)



Maxsus yengil avtomobillar





2023- yilning yanvar-aprel oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda paxta tolasi 41 117,5 tonna (2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 44,7 % ga oshgan), paxta chigiti 69306,9 tonna (2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 14,3 % ga oshgan), 8 977,5 tonna paxtadan yigirilgan ip (12,8 % kamaygan), 19 052 dona yengil avtomobil (maxsus yengil avtomobillarsiz) (19,0 % kamaygan), 6 851 dona maxsus yengil avtomobil (31,8 % ga oshgan), o'simlik yog'i 23 546,2 tonna (47,4 % kamaygan) hamda 23 546,2 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (15,6 % kamaygan) ishlab chiqarildi.


Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-aprel	2023- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz),dona	23534	19052	-4482
Maxsus yengil avtomobillar, dona	5199	6851	1652
Paxtadan yigirilgan ip,tonna	10297,1	8977,5	-1319,6
Paxta tolasi,tonna	25367,1	41117,5	15750,4
Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna	27911,7	23546,2	-1820,9
O'simlik yog'i (tozalangan), tonna	5422,2	2309,2	-3113,0


Yanvar-aprel , yirik korxonalar bo'yicha

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2021- yil yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 27,1 %ni, uning fizik hajm indeksi esa 102,5 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-aprel oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 22,5 %ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 90,4 % va ishlab chiqarish hajmi 1 293,8 mlrd so'mni tashkil etdi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati




2021- yil yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 133,4 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-aprel oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 8,0 %ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 41,0 %ga ko'paygan va ishlab chiqarish hajmi 461,2 mlrd so'mni tashkil etdi.

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


2021- yil yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 22,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 135,3 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-aprel oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 25,0 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 106,2 %ni, ishlab chiqarish hajmi 1 437,0 mlrd so'mni tashkil etdi.




Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2021- yil yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,6 %ni, uning fizik hajm indeksi esa 93,6 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-aprel oylariga ko'ra, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,2 %ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 139,1 %ni va ishlab chiqarish hajmi 69,4 mlrd so'mni tashkil etdi.



Asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




2021- yil yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,2 %ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 404,6 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-aprel oylarida asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 48,9 %ni va ishlab chiqarish hajmi 2,8 mlrd so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2021- yil yanvar-aprel oylarida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 68,0 %ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2023- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 %ni, fizik hajm indeksi 186,1 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 30,5 mlrd so'mni tashkil etdi.



Elektr uskunalar ishlab chiqarish

2021- yil yanvar-aprel oylari yakuniga ko'ra, elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,1 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 97,8 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 %ni, fizik hajm indeksi 172,4 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 28,2 mlrd so'mni tashkil etdi.



Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish




2021- yil yanvar-aprel oylarida boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 19,9 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 %ni, fizik hajm indeksi 54,6 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 33,7 mlrd so'mni tashkil etdi.

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

2021- yil yanvar-aprel oylarida avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 40,0 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 110,9 %.


Shuningdek, 2023- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 34,8 %ni, fizik hajm indeksi 86,4 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1 995,6 mlrd so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 232,0 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,9 %ini) tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-aprel oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 41,3 %ga oshganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-aprel	2023- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln kVt.s	79,6	461,0	381,4
Issiqlik energiyasi, ming gkal	45,1	58,7	13,6
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, ming so'm	608048,0	431648,0	-176400

Yanvar-aprel , yirik korxonalar bo'yicha

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 27,7 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 %ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-aprel	2023- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, <i>ming so'm</i>	2066877,0	1745868,0	-321009,0
Tabiiy suv;suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar, <i>ming so'm</i>	37334050,0	40400751,0	3066701
Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, <i>ming so'm</i>	6992164,0	5311154,0	-1681010

O'tgan yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv, suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 8,2 %ga oshganligi, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 15,5%ga, xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar 24,0 %ga kamayganligi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3 306,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 99,8 %ni, uning jami sanoatdagi ulushi 55,0 %ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2022- yil
yanvar-aprel

39,2%

2023- yil
yanvar-aprel

47,5%

Nooziq-ovqat mahsulotlari

2022- yil
yanvar-aprel

60,8%

2023- yil
yanvar-aprel

52,5%

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 3 065,2 ming so'm (2022- yil yanvar-aprel 2 755,7 ming so'm), o'tgan yilning shu davriga nisbatan 101,9 % o'sishni ko'rsatmoqda.

2022- yil

yanvar-aprel

2 755,7 ming so'm

2023- yil

yanvar-aprel

3 065,2 ming so'm

113,6 %




2022- yil

101,9 %





2023- yil

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 224,8 mlrd soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 20,4 %ni tashkil etdi.

**Aholi jon boshiga toʻgʻri keladigan isteʼmol mahsulotlari ishlab chiqarish**

Aholi jon boshiga isteʼmol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1 412,1 ming soʻm (2022- yil yanvar-aprel oylarida 1 278,7 ming soʻm), oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 110,4 % oʻsishni koʻrsatmoqda.



Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 4 102 ta sanoat korxonasi faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan 4 069 tasi kichik biznes subyektlaridir. Yangi tashkil qilingan korxonalar soni 323 ta va barchasi kichik biznes hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Jami faoliyat yuritayotgan

2022- yil

4 354 dona

2023- yil

4 102 dona

Jami yangi tashkil etilgan

2022- yil

442 dona

2023- yil

323 dona